

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайлловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARNING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliy Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i> MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI: MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI (Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i> IJTIMOIY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i> MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA: O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i> OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i> JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i> RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i> RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i> HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i> СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmurotov Umidjon Temurovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i> JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужонпоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон ўғли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIK LARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIK LAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUIJATLAR TAHLILI	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

Received: 03 January 2026

Accepted: 17 January 2026

Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

ON THE PHILOSOPHICAL ASPECTS OF SUFISM

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna

Alfraganus University

Acting Professor, Department of Social Sciences

Abstract. This article presents a systematic analysis of the ontological, gnoseological, logical, artistic, and aesthetic aspects of Sufi teachings. These aspects help to reveal the complex and multi-layered structure of Sufi worldview. The ontological aspect reflects the nature of being and divine reality, the gnoseological aspect concerns processes of knowledge and perception, and the logical aspect demonstrates the systematic and interconnected nature of Sufi views. Artistic and aesthetic aspects are discussed in terms of their philosophical role in perceiving beauty and divine light through human spiritual experiences.

Keywords: sufism, ontology, gnoseology, aesthetic thinking, artistic images, spiritual experience.

TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna

Alfraganus university

Ijtimoiy fanlar kafedrası v.b.professori

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasavvuf ta'limotining ontologik, gnoseologik, badiiy va estetik jihatlari tizimli tahlil qilinadi. Mazkur jihatlar tasavvufiy qarashlarning murakkab va ko'p qatlamli tizimini namoyon etadi. Ontologik jihat borliq va ilohiy haqiqatni, gnoseologik jihat bilish va idrok jarayonlarini, mantiqiy jihat esa tasavvufiy qarashlarning tizimli va uzviyligini ifodalaydi. Badiiy va estetik jihatlar esa inson ruhiy kechinmalari orqali go'zallik va ilohiy nurni idrok etishga xizmat qilishi haqida falsafiy mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: tasavvuf, ontologiya, gnoseologiya, estetik tafakkur, badiiy obrazlar, ruhiy tajriba.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N11>

Kirish. IX–XII asrlarda Movarounnahr hududida kechgan Uyg'onish jarayonlari tarixiy makon va zamon mezonlari nuqtai nazaridan o'z davridan sezilarli darajada ilgarilab ketgan noyob sivilizatsion hodisa sifatida e'tirof etiladi. Ushbu davr Sharq Uyg'onishining muhim markazlaridan biri bo'lib, jahon ilm-fani taraqqiyoti hamda umumbashariy moddiy va ma'naviy qadriyatlar tizimining shakllanishi va rivojlanishida muhim ilmiy-paradigmal ahamiyat kasb etdi.

Movarounnahrda ilm-fan, falsafa, madaniyat va ma'rifatning yuksak darajada rivojlanishi Markaziy Osiyoda intellektual muhitning shakllanishiga xizmat qilib, ilmiy tafakkur, ratsional fikrlash va nazariy izlanishlarning keng quloch yoyishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, islom dini ta'limotlari, Qur'on ilmlari hamda hadisshunoslik sohasining izchil rivoji mazkur uyg'onish jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ldi. Natijada, diniy-ilmiy tafakkur bilan dunyoviy fanlar o'rtasida uyg'unlik vujudga kelib, bu holat mintaqaning jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini yanada mustahkamladi.

O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Vatanimiz necha yuz yillar mobaynida buyuk sivilizatsiya va madaniyat markazlaridan biri bo'lgan. Qadimdan diyorimizda xalqimiz bilan birga turli millat vakillari yelkadosh, ahil va hamjihat bo'lib, tinch va osoyishta muhitda yashab keladilar. O'zbekistondagi bag'rikenglik siyosati tufayli hozirgi kunda yurtimizda yagona oila bo'lib yashayotgan millat va elat vakillariga o'z ona tili, urf-odat va qadriyatlarini rivojlantirishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda". [1;35.]

Tasavvuf ilmi manbalarda feodal tuzum sharoitida yuzaga kelgan ijtimoiy-ma'naviy norozilik harakati sifatida talqin qilinadi. Xususan, u jamiyatda boylikka haddan tashqari berilish, moddiy manfaatlarining ustuvor qo'yilishi hamda insoniy qadr-qimmatning poymol etilishiga qarshi yo'naltirilgan g'oyaviy-axloqiy oqim sifatida shakllangan.

Metodologiya. Mazkur maqolada tasavvuf ta'limotining falsafiy jihatlarini tadqiq etishda dialektik, tarixiy-falsafiy, qiyosiy va tizimli-tahliliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tasavvufdagi ontologik, gnoseologik, axloqiy hamda estetik qarashlar o'zaro uzviy bog'liq falsafiy tizim sifatida tahlil qilindi. Shuningdek, tasavvufiy matnlar va ramzlarning mazmunini ochib berishda germeenvtik yondashuv qo'llanildi, bu esa tasavvuf falsafasining nazariy mohiyatini ilmiy asosda yoritish imkonini berdi.

Muhokama. Tasavvuf o'zining ilk tarixiy bosqichlaridanoq so'fiylik harakati namoyandalari tomonidan islom dinining asl mohiyatini va ruhiy sofliğini tiklash, ijtimoiy munosabatlarda adolat va tenglik tamoyillarini qaror toptirish, shuningdek, axloq-odob sohasida dastlabki sodda va kamtarona hayot tarziga qaytishni targ'ib etuvchi ta'limot sifatida rivojlandi. Shu jihatdan, tasavvuf nafaqat diniy-mistik oqim, balki jamiyatning axloqiy-ma'naviy muammolariga javob beruvchi muhim ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Bu ilmning barcha musulmon o'lkalarida, jumladan, Markaziy Osiyo hududida keng tarqalishining sababi uning har bir mamlakatning ijtimoiy taraqqiyotiga xos xususiyatlariga hozirjavoblik bilan moslashuvi, rasmiy islomga nisbatan soddaligi va xalqchilligidir. U o'zining rivojlanishi jarayonida muayyan mahalliy xalqlarning urf-odatlarini, diniy marosimlari, milliy an'analariga tezkorlik bilan moslasha bordi va ularni o'zida uddaburonlik bilan aks ettira oldi. [2;231.]

"Mamlakatimizda "o'tgan yillarda xalqimizning ma'naviy merosiga yangicha yondashish va yangicha fikrlash taqozosi tufayli bizga noma'lum bo'lgan ko'pgina tasavvuf allomalari bo'lgan yurtdoshlarimizni kashf etdik. Hozirgi real makon va zamonda so'fiylarning ilmiy-ma'rifiy manbalarini o'rganish uchun yetarli sharoitlar mavjud, ularning go'zallik g'oyalarini hayotga tatbiq etmoqdamiz, buyuk zotlarning faoliyatlariga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazmoqdamiz". [3;4.]

Tasavvuf ta'limotining falsafiy jihatlarini, xususan uning ontologik, gnoseologik, axloqiy hamda estetik asoslari so'nggi yillarda yosh olimlar tomonidan olib borilgan qator ilmiy tadqiqotlarda tizimli ravishda o'rganib kelinmoqda. Bu borada tasavvufni nafaqat diniy-mistik oqim, balki murakkab falsafiy-tafakkuriy tizim sifatida tahlil qilishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar shakllanganini kuzatish mumkin. Jumladan, Buxoro va Samarqand falsafiy maktablari, J. Xolmo'minov, Z.Isoqova, M.Norova, L.Karimova, M.Norqobilov, O.O'roqova va boshqalarning dissertatsiya ishlari tasavvufning tarixiy, falsafiy, diniy jihatlarini, borliq haqidagi tasavvurlari, bilish nazariyasi, axloqiy kamolot masalalari hamda estetik qarashlarini ilmiy asosda yoritib berishi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur tadqiqotlarda tasavvufiy tafakkur inson va borliq munosabatini tushuntirishga qaratilgan ontologik qarashlar, haqiqatni idrok etishning ichki-ma'rifiy yo'llari sifatidagi

gnoseologik yondashuvlar, shuningdek, komil inson konsepsiyasi bilan bog'liq axloqiy tamoyillar va go'zallikni ilohiy mohiyat bilan uyg'un holda talqin etuvchi estetik qarashlar orqali tahlil etiladi. Bu esa tasavvufni Sharq falsafasining muhim tarkibiy qismi sifatida baholash imkonini beradi.

Shu bilan birga, Usmon Turar tomonidan yozilgan “Tasavvuf tarixi” asarida tasavvufiy tafakkur rivojida muhim o'rin tutgan asosiy manbalar bilan bir qatorda izohlovchi va ikkilamchi manbalar ham keng qamrovda ko'rib chiqiladi. Muallif tasavvuf manbalarini tizimlashtirgan holda “Tabaqoti so'fiya”, “Manoqib” janridagi asarlar, odob va arkon kitoblari, she'riy tasavvufiy asarlar, tasavvufiy tafsirlar hamda boshqa yozma yodgorliklarni alohida guruhlarga ajratadi. Ushbu tasnif tasavvuf manbalarining nihoyatda boy va rang-barang ekanligini, ularning son jihatidan minglab ekanini ko'rsatadi. [4;180.]

Tasavvufni falsafiy jihatdan tahlil qilishda dastlab uning ontologik jihatlariga e'tibor qaratish lozim, tasavvufning ontologik qarashlari borliq mohiyatini ilohiy birlik g'oyasi asosida talqin etishga qaratilgan. Tasavvuf falsafasida mutlaq borliq Alloh taolo sifatida tushuniladi va mavjudotning barcha shakllari ushbu mutlaq borliqning zohiriy tajalliyarlari deb izohlanadi. Shu bois tasavvuf ontologiyasi vahdat al-vujud (borliqning birligi) va vahdat ash-shuhud (idrokda birlilik) konsepsiyalari orqali ifodalanadi.

Tasavvufiy ontologiyada mavjudot mustaqil substansiya sifatida emas, balki ilohiy haqiqatning tajalliy shakllari sifatida talqin qilinadi. Inson esa ushbu borliq tizimida alohida maqomga ega bo'lib, u mikrokosmos sifatida makrokosmosdagi ilohiy sifatlarning jamlanmasi hisoblanadi. Aynan shu jihat tasavvufda komil inson g'oyasining shakllanishiga ontologik asos bo'lib xizmat qiladi. Komil inson — borliqdagi ilohiy haqiqatni to'liq anglay oluvchi va uni o'z vujudida namoyon eta oluvchidir. Shu tariqa, tasavvuf ontologiyasi borliqni dualistik qarama-qarshilikda emas, balki yagona ilohiy manbadan kelib chiqqan yaxlit tizim sifatida tushuntiradi.

Tasavvufning gnoseologik jihatlari esa shundan dalolat beradiki, bilish jarayonini faqat aql va hissiy tajriba bilan cheklab qo'yilmaydi. Unda haqiqatni bilishning asosiy yo'li qalbiy-ma'rifiy idrok hisoblanadi. Tasavvufiy bilish shakllari sifatida ma'rifat, kashf, ilhom va mushohada tushunchalari muhim o'rin tutadi. Tasavvufga ko'ra, aql zohiriy bilimlarni anglashda zarur vosita bo'lsa-da, u mutlaq haqiqatni to'liq idrok etishga qodir emas. Haqiqiy bilim qalbning poklanishi, nafsni jilovlash va ruhiy kamolot orqali qo'lga kiritiladi. Shu sababli tasavvuf gnoseologiyasida bilish axloqiy kamolot bilan chambarchas bog'liqdir.

Bilish jarayoni shariat – tariqat – ma'rifat – haqiqat bosqichlari orqali amalga oshadi. Ushbu bosqichlar insonning tashqi diniy amal va bilimlardan ichki ruhiy idrok va ilohiy haqiqatni anglash sari bosqichma-bosqich yuksalishini ifodalaydi. Demak, tasavvuf gnoseologiyasi bilishni faqat intellektual faoliyat emas, balki butun shaxsning ruhiy-axloqiy kamoloti jarayoni sifatida talqin qiladi.

Tasavvuf estetikasiga ko'ra, go'zallik ilohiy haqiqatning tajallisi sifatida tushuniladi. Unda go'zallik tashqi shakl bilan cheklanmay, ichki ma'no va ruhiy mohiyat bilan uyg'un holda idrok etiladi. Tasavvufda jamol (go'zallik) va jalol (ulug'vorlik) tushunchalari estetik qarashlarning asosiy kategoriyalarini tashkil etadi. Tasavvufiy estetik tafakkurda san'at, ayniqsa she'riyat va musiqa, ilohiy haqiqatni ramziy obrazlar orqali ifodalash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ishq, visol, hijron, may, soqiy kabi timsollar tasavvufiy she'riyatda estetik obrazlar bo'lishi bilan birga, chuqur falsafiy-axloqiy mazmunga ega. Bu obrazlar inson ruhining ilohiy manbaga intilishi va ma'naviy yuksalishini ifodalaydi. Tasavvuf estetikasi, shu tariqa,

axloqiy poklanish va ruhiy kamolot bilan uzviy bog'langan bo'lib, go'zallikni idrok etish jarayonini insonni komillikka yetaklovchi vosita sifatida baholaydi.

Natijalar. Umuman olganda, tasavvuf ta'limotining ontologik, gnoseologik va estetik jihatlarini o'zaro uzviy bog'liq holda yagona falsafiy tizimni tashkil etadi. Ontologik jihatdan borliq ilohiy birlik asosida tushuntirilsa, gnoseologik jihatdan haqiqatni bilish qalbiy-ma'rifiy idrok orqali amalga oshadi, estetik jihatdan esa go'zallik ilohiy haqiqatning ramziy ifodasi sifatida talqin qilinadi. Ushbu jihatlar tasavvufni Sharq falsafasi va ma'naviy madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida baholash imkonini beradi.

“Tasavvufda bizni qiziqtirayotgan narsa uning mohiyati va haqiqati, xalq qalbidan joy olgan insonparvarlik g'oyalari, ulug' adiblarga ilhom bergan Soflik, Haqiqat, Go'zallik, Kamolot ideali, shu ideallarga bo'lgan cheksiz muhabbatdir. Hazrat Navoiy ta'riflaganday, tasavvuf xilof-u ixtilofi bo'lmagan, riyo va manmanlik, da'vo-yu tamani inkor etadigan bir ulug' ta'limotkim, u inson ziynati, tiynatini poklovchi obihayotdir”.

Tasavvuf, o'z mohiyatiga ko'ra, inson tafakkuri va ruhiy olamini qamrab oluvchi yuksak darajadagi romantik-falsafiy makondir. “Olamni Mutlaq Parvardigorning ijodi deb qarash, dunyoni Ilohning ko'zgusi deb tushuntirish va barcha go'zalliklar, qudratni Ilohdan deb hisoblash, borliqni romantik ranglarda, shoirona xayoliy surat-timsollar tarzida, ilohiy nurning porlashidan doimiy harakatda va ijodda deb tasavvur etish — o'zi bir Buyuk Poeziyadir”. [5;140.] Tasavvufiy dunyoqarashda borliq faqat moddiy mavjudliklar majmui emas, balki ilohiy nur, go'zallik va qudratning uzluksiz namoyon bo'lish jarayonidir. Shu ma'noda, barcha go'zalliklar, uyg'unlik va harakat manbai sifatida Allohning mutlaq ijodkorligi e'tirof etiladi.

Tasavvufda olamni idrok etish jarayoni ratsional-analitik tafakkur bilan cheklanmay, balki badiiy-estetik mushohada, ramziy tasavvur va shoirona xayol orqali amalga oshadi. Borliq ilohiy nurning porlashi natijasida doimiy harakat va ijod holatida tasavvur qilinadi. Shu bois tasavvufiy tafakkurda mavjudot statik emas, balki dinamik, ya'ni ilohiy tajallilarning uzluksiz oqimi sifatida talqin etiladi. Bu holat tasavvuf estetikasi va ontologiyasining o'zaro uzviy bog'liqligini namoyon etadi.

Darhaqiqat, tasavvufiy qarashlarga badiiy-estetik munosabatda yondashish uni romantika hodisasi sifatida baholash uchun mustahkam falsafiy asos yaratadi. Tasavvuf romantizmi individual hissiyotlar va subyektiv kechinmalar bilan cheklanib qolmaydi; aksincha, u inson ruhining mutlaq haqiqatga intilishi, ilohiy ishq orqali komillikka erishish jarayonini ifodalaydi. Bu romantizm real borliqdan qochish emas, balki borliqni ilohiy ma'no bilan qayta talqin qilish, uni yuksak estetik va axloqiy mezonlar asosida anglashga urinishdir.

Tasavvufiy tafakkurda she'riyat, ramz, timsol va metaforalar muhim gnoseologik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ishq, visol, hijron, nur, ko'zgu, sayr kabi obrazlar tasavvufiy matnlarda nafaqat estetik bezak, balki chuqur ontologik va ma'rifiy mazmunga ega timsollar sifatida ishlatiladi. Shu jihatdan, tasavvufni “Buyuk Poeziya” deb atash mumkin, chunki u borliqni nafaqat tushuntiradi, balki uni ruhiy-estetik jihatdan qayta yaratadi. Aytish mumkinki, tasavvuf romantik olam sifatida ilohiy haqiqatni badiiy-estetik idrok orqali anglashga qaratilgan yuksak falsafiy tizim bo'lib, unda ontologiya, gnoseologiya va estetika bir butun holda namoyon bo'ladi. Tasavvufiy romantizm insonni ruhiy poklanish, axloqiy kamolot va ilohiy go'zallikni mushohada qilish sari yetaklovchi muhim ma'naviy-falsafiy hodisa sifatida qadrlanadi.

Tasavvuf estetikasi inson ruhiy olami va go'zallikni idrok etish jarayonini o'rganadi. Tasavvufiy estetik tajriba bir nechta qatlamdan iborat: mavjudot va uning ilohiy mohiyati, inson

qalbidagi ruhiy mushohada, shuningdek hissiy kechinmalar va badiiy ifodalar. Shu qatlamlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular orqali inson ruhiy go'zallik va ma'naviy yuksalish tajribasini oladi.

Tasavvuf estetikasi doimiy harakat va o'zgarish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, she'riyat, ramzlar va timsollar orqali inson ruhining Alloh bilan yaqinlashishi, yangi ma'naviy holatga erishishi kuzatiladi. Bu jarayon shunchaki tasavvur emas, balki haqiqiy ruhiy tajriba sifatida qabul qilinadi. Shuningdek, tasavvuf estetikasi ochiq tizim sifatida ishlaydi: u tashqi olamdan ilhom oladi, ruhiy mushohada orqali o'zini yangilaydi va yangi badiiy obrazlar yaratadi. Shu tariqa, tasavvufiy san'at va she'riyat insonning ruhiy kechinmalari va estetik idrokini boyitadi, yangi ma'no va hislarni uyg'otadi.

Umuman olganda, tasavvuf estetikasi insonni go'zallik, ruhiy poklanish va ma'naviy yuksalish sari yetaklaydi. Bu jarayon ontologik, gnoseologik va estetik jihatlarni birlashtirib, inson va olamni yagona ruhiy tajriba sifatida tushunishga imkon beradi. Shu sababli tasavvufni "Buyuk Poeziya" deb atash mumkin, chunki u borliqni nafaqat tushuntiradi, balki uni his qilishni o'rgatadi.

"Tasavvuf bir xil o'xshash falsafiy-diniy oqim bo'lmagan. Tabiat va hayotni tushuntirishda ilmiy qonunlardan qochish, inson mohiyatini ruhiy-ma'naviy isloh etish, islom doktrinasini qabul qilingan jihatlari yangi soz va ovoz jarangini kiritish, bularning barchasi tasavvuf oqimlarining xususiyatlari edi. Shu bilan birga, arab xalifaligiga O'rta va Yaqin Sharq xalqlarining ma'lum bir ijtimoiy oppozitsiyalari, o'sha davr ilmiy-badiiy tafakkurining ma'lum bir yutuqlari, qadimgi yunon falsafasini o'rganish so'fizmning boshqa yo'nalishlarini ham yaratadi".[6;50.]

Shuningdek, tasavvuf o'zining falsafiy estetik tizimi orqali insonni mavjudotning haqiqiy mohiyati bilan uyg'unlashishga chaqiradi. Bu tizimda ilmiy tafakkur va badiiy tasavvur bir-birini to'ldiradi, shoirona obrazlar va ramzlar esa inson ruhida ontologik va gnoseologik tajriba hosil qiladi. Shu tariqa, tasavvuf nafaqat diniy ibodat va ruhiy amaliyotlar bilan cheklanmay, balki insonning ichki olami va dunyoni anglash qobiliyatini boyituvchi murakkab ilmiy-falsafiy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Tasavvuf ta'limotida kuzatiladigan bunday ijodiy va falsafiy xilma-xillik, bir tomondan, insonning ruhiy ehtiyojlariga javob berish, boshqa tomondan esa o'sha davr jamiyatidagi ma'naviy va estetik tendensiyalarni qamrab olish bilan bog'liq. Shu bilan tasavvufning turli yo'nalishlari bir-biridan farqli bo'lgan qarashlar va metodlarni ham o'z ichiga olgan holda, ijodiy plyuralizmni shakllantiradi. [7;257.]

Bundan tashqari, tasavvufda qadimiy yunon falsafasi, hind va fors ilmiy-ma'rifiy merosi ham integratsiyalashgan. Bu esa so'fizmni nafaqat Islom madaniyati doirasida, balki globallashtirilgan ilmiy-falsafiy kontekstda ham o'rganish imkonini beradi. Shu tarzda, tasavvufiy tafakkur inson va olam o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni idrok etishga, estetik tajriba orqali ruhiy kamolotga erishishga xizmat qiladi.

Natijada, tasavvuf oqimlari o'zining falsafiy, estetik va gnoseologik jihatlari bilan o'sha davr jamiyatining ruhiy va madaniy hayotini boyitgan, insonni haqiqat, go'zallik va ma'naviy poklanishga yetaklovchi murakkab tizim sifatida shakllangan.

Xulosa. Tasavvuf ta'limotining turli jihatlari, xususan, ontologik, gnoseologik, badiiy va estetik qirralarini o'rganish, inson tafakkurini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Har bir jihat tasavvufning murakkab va ko'p qatlamli tizimini ochishga xizmat qiladi. Ontologik jihat

tasavvufiy tafakkur orqali borliqning mohiyati, inson va olam o'rtasidagi munosabatlar, mavjudot va ilohiy haqiqatning o'zaro bog'liqligi tushuniladi. Shu bilan inson haqiqiylikni idrok etish, o'zligini va dunyoni anglash imkoniyatiga ega bo'ladi. Gnoseologik jihat esa bilish jarayonini, qalb va idrok orqali haqiqatni anglash yo'lini o'rganadi. Tasavvufda bilish faqat aqliy tafakkur bilan cheklanmaydi, balki ruhiy mushohada, ma'rifiy tajriba va ilohiy ilhom orqali ham amalga oshadi. Bu jihat insonni ma'naviy poklanish va ichki kamolotga yetaklaydi. Badiiy va estetik jihatlar tasavvufni inson ruhiy olamida go'zallik, ilohiy nur va she'riyat orqali idrok etishga imkon beradi. Tasavvufiy san'at, ramzlar, timsollar va she'riyat insonning ichki kechinmalari bilan uyg'unlashib, ruhiy va hissiy tajribani boyitadi. Shu bilan u insonni faqat tushunishga emas, balki his qilish va hisobot berishga undaydi.

Umuman olganda, tasavvufning bu jihatlarini o'rganish insonning ruhiy va ma'naviy rivojlanishini, estetik idrokini, bilim va tafakkur qobiliyatini kengaytiradi. Bu nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki jamiyatning ma'naviy va madaniy boyligiga ham hissa qo'shadi. Shu tariqa, tasavvufiy tadqiqotlar orqali biz borliq, inson va go'zallik haqidagi fundamental haqiqatlarni chuqurroq anglashga erishamiz.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2021. – 35 б.
2. Ўзбекистон фалсафаси тарихи. – Тошкент: "Noshir", 2013. – 231 б.
3. Каттаев К. Тасаввуф алломалари. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 4 б.
4. Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. Истиқлол. – Т.; 1999. – 180 с.
5. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Movarounnahr, O'zbekiston. 2009. – 140 б.
6. Ўракова О.Ж. Шарқ романтизмнинг эстетикаси: тадрижий таҳлил ва замонавий ёндашувлар иерархиясининг фалсафий асослари. Фалс. фан. док (DcS) дис. ... – Самарқанд, 2022.
7. Tursunkulova Sh. Tasavvuf falsafasida go'zallik paradigmasining konseptual mohiyati. Monografiya. – Toshkent: Alfraganus university, 2025. – 257 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).